

TEMURIY IZDOSHLARI

*Xudoyqulova Zarnigor**Qashqadaryo viloyati Koson tuman**32-DMTT tashkiloti jismoniy tarbiya yuriqchisi*

Annotatsiya: Maqolada Temuriy izdosHLari haqida ma'lumotlar va shu bo'yicha olib borilayotgan chora tadbirlar haqida yozilgan

Kalit so'zlar: Eronlik , Turkiya,Ozarbayjon, Iroq, Suriya , Turkiya, tadbirlar, el-yurt, Pastkash,razil

Kirish: Eronlik olim Abulhusayn Navoiy mazkur majmuaga Eron, Turkiya,Ozarbayjon va Fors hukmdorlarining xatlarini ham qo'shib, 1991-yili“Isnod va maktuboti tarixi Eron (az Temur to shoh Ismoil” nomi bilan nashr etgan. Mazkur to'plamga Amir Temur va Temuriylar (Shohruh,Sulton Husayn va boshqalar)ning Fors, Ozarbayjon, Iroq va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalari jamlangan.Bu yozishmalar Amir Temur va Temuriylarning mazkur mamlakatlarbi o'lgan siyosiy munosabatlari tarixini o'iganishga, xususan Amir Temurning 1381—1404-yillari Eron, Iroq, Ozarbayjon, Suriya va Turkiya ustiga qilgan harbiy yurishlarining saboqlarini to'g'ri anglashga yordam beradi.Mazkur to'plam Haydar va Er o'g'lining “Majmuayi munshaot”,xoja Shahobiddin Abdulla Marvoridning “Munshaot”, Frudunbekning“Munshaoti Fridunbek” asarlariga ham asoslangan.“Maktuboti Temuriya” xurosonlik mashhur shayx, Amir Temurning pirlaridan biri Zayniddin Abubakr Taybodiy (1395-yili vafot etgan)ning o'z muridi AmirTemurga yo'llagan bir tarixiy maktubi bilan boshlanadi.

Asosiy qism: Yigitga eng yarashiqli kasb-kor ham yurt istiqboli yo'lida jon kuydirish, xalqi va oilasi tinchligini muhofaza etishdir. Bu yo'lda sobitqadam bo'lib, kerak bo'lsa, jonini fido qilib yurtimizni yomon ko'zlardan asraganlar qancha. Bugun ularning nomi hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi. Avlodlarga o'rnak qilib ko'rsatiladi. Shubha yo'qki, ular ham murg'akligida buyuk bobokalonlariga, botir ajdodlariga havas qilgan, ulardek bo'lishni orzu qilgan.

Shu uchun ham bizning faoliyatimizda ham shunday insonlarni yanada ko'paytirish uchun turli tadbirlar o'tkazamiz.



«Temur Izdoshlari» tadbiridan lavha

Temuriy izdoshlariga munosib, yetuk insonlar tarbiyalash maqsadida 32-DMTT da ko'plab shunga o'xshash tadbir va musobaqalar o'tqazib kelinadi. Maqsadimiz bobolarimizga munosib izdosh bo'lib yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishdir.

Amir Temur, Temur Maligu Jaloliddin Manguberdi, Boburdek jasur ajdodlarning munosib vorislari bo'lish bugun bizning oldimizda turgan sharaflig, g'ururli vazifadir. Aytish joizki, o'lmas siymolarimiz nomini abadiylashtirish, ular merosini o'rganib, kelajak avlodga munosib tarzda yetkazishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yaqinda Prezidentimizning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash" to'g'risidagi farmoniga asosan buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda,

respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga (4 ta viloyatdagi) “Temurbeklar maktabi” nomi berildi.



Ko‘pchilikni bunday nomlanish qiziqtirgani ham rost. Izohni esa quyidagicha bildiramiz: Sohibqiron Amir Temur nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda, balki o‘z davrida adolatni, ilm-fan va madaniyatni yuqori darajaga ko‘targan, bunyodkor va markazlashgan davlat asoschisi ham bo‘lgan. “Temur tuzuklari” asari esa bugungi kunda ham yoshlarimizga o‘z hayoti va faoliyati, harbiy mahorati va san‘ati bilan yaqindan tanishtirish imkoniyatini bermoqda. Bobokalonimiz tuzuklari davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim, vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo‘shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag‘batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish kabi tadbirlardan bizni voqif etadi. Bular esa o‘z davrida yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllangan milliy davlatchilikdan dalolat beradi. Amir Temur siyosatining asos-mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Uning quyidagi xulosalari ham so‘zimizning tasdig‘idir: “...har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafs yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim, xiyla hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xojiyeva M. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari, N.D. Toshkent, 2004.
2. Amir Temur o'g'itlari [To'plam] Tuzuvchilar: B Ahmedov, A.Aminov. -T.: Navro'z, 1992
3. Amir Temur v mirovoy istorii. -T.: "SHark", 1996
4. Ahmedov Bo'riboy. Amir Temurni yod etib. -T. "O'zbekitson", 1996
5. Aka, Ismoil. Buyuk Temur davlati (TQahhor tarjima) Cho'lpon, 1996
6. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. -T "Fan". 1994
7. Haqqulov L. O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami). N.D.-Toshkent, 1995.